VIZUAL SAVODXONLIK TUŞUNÇASINING ONA TILI TA'LIMIDAGI ÖRNI

Abdiyeva Xonzodabegim Turdiboy qizi,
Özbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari universiteti Magistratura bölimi uslubçisi
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340036

Annotatsiya. Mazkur maqolada vizual savodxonlik tuşunçasining ilmiy-nazariy mohiyati, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi örni va ona tili ta'limi bilan aloqador jihatlari yoritilgan. Vizual axborotni idrok etiş, tahlil qiliş, baholaş hamda uni nutqiy faoliyatga tatbiq etiş imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Şuningdek, vizual savodxonlikni rivojlantirişning didaktik ahamiyati asoslanadi.

Kalit sözlar: vizual savodxonlik, ona tili ta'limi, vizual axborot, multimodal matn, nutqiy kompetensiya, kognitiv faoliyat, tasvir, didaktik imkoniyat.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-теоретическая сущность понятия визуальной грамотности, его место в современной системе образования и взаимосвязь с обучением родному языку. На основе научных источников анализируются возможности восприятия, интерпретации и оценки визуальной информации, а также её использования в речевой деятельности учащихся. Обосновывается дидактическое значение развития визуальной грамотности.

Ключевые слова: визуальная грамотность, обучение родному языку, визуальная информация, мультимодальный текст, речевая компетенция, когнитивная деятельность, изображение, дидактические возможности.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of visual literacy, its role in contemporary education, and its relevance to mother tongue teaching. Drawing on scholarly sources, it analyzes learners' abilities to perceive, interpret, evaluate, and use visual information in language activities. The article also substantiates the didactic value of developing visual literacy to support cognitive and communicative competencies.

Key words: visual literacy, mother tongue education, visual information, multimodal text, language competence, cognitive activity, image, didactic potential.

Kiriş

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida insonning ma'lumotni qabul qiliş, anglaş va uzatiş usullari sezilarli darajada kengayib bormoqda. An'anaviy yozma va oğzaki axborot bilan bir qatorda fotosurat, tasvir, diagramma, infografika, xarita, belgi va boşqa vizual vositalar kundalik kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivoji natijasida axborotning verbal va noverbal şakllari özaro uyğunlaşib, murakkab mazmunni turli ifoda vositalari orqali yetkaziş imkoniyatini kengaytirmoqda. Mazkur jarayon ta'lim tizimi oldiga öquvçilarda nafaqat matnni öqiş va yoziş, balki tasviriy axborotni anglaş, uning mazmunini tahlil qiliş, yaşirin ma'nolarini aniqlaş, işonçliligini baholaş va undan samarali foydalaniş

könikmalarini şakllantiriş vazifasini ham qöymoqda. Şu jihatdan vizual savodxonlik zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy yönalişlaridan biri sifatida namoyon böladi [1; 2].

Ona tili ta'limida vizual savodxonlikning ahamiyati, avvalo, uning öquvçilarning til va nutq faoliyati bilan uzviy boğliqligida körinadi. Çunki öquvçi tasvirni şunçaki tomoşa qilmaydi, balki undagi axborotni idrok etadi, mazmuniy munosabatlarni aniqlaydi, öz kuzatişlarini sözlar vositasida ifodalaydi, xulosa çiqaradi va muayyan kommunikativ vaziyatga mos matn yaratadi. Demak, vizual materiallar ona tili darslarida faqat körgazmali vosita vazifasini bajarib qolmasdan, mustaqil fikrlaş va nutqiy faoliyatni yuzaga keltiruvçi didaktik manba sifatida ham xizmat qilişi mumkin [5].

Vizual savodxonlik tuşunçasi XX asrning ikkinçi yarmidan boşlab ilmiy muomalada faol qöllanila boşlagan. Uşbu tuşunçaning şakllanişi insonning vizual axborotni idrok etişi, anglaş va undan kommunikativ maqsadlarda foydalaniş qobiliyatlarini örganiş bilan bevosita boğliq [7]. Vizual savodxonlik nazariyasining rivojlanişida John Debes nomi alohida tilga olinadi. U vizual savodxonlikni köriş jarayoni va boşqa sensor tajribalarni birlaştiriş orqali rivojlanadigan qobiliyatlar majmui sifatida izohlagan. Keyingi ilmiy tadqiqotlarda mazkur tuşunça faqat tasvirni köriş yoki taniş qobiliyati sifatida emas, balki vizual axborot bilan ongli munosabatga kirişiş, uni talqin qiliş va yaratiş jarayonlarini qamrab oluvçi murakkab kompetensiyalar majmui sifatida izohlanadi [7].

Adabiyotlar tahlili

Association of College and Researç Libraries (ACRL) tomonidan işlab çiqilgan Visual Literacy Competency Standards for Higher Education hujjatida vizual savodxonlik şaxsning tasvir va vizual medialarni izlaş, talqin qiliş, baholaş, ulardan foydalaniş hamda yaratiş imkonini beruvçi qobiliyatlar majmui sifatida ta'riflanadi. Mazkur yondaşuvda vizual axborotning kontekstual, madaniy, axloqiy, estetik, intellektual va texnik jihatlarini anglaş ham muhim hisoblanadi [1]. 2022-yilda ACRL tomonidan qabul qilingan The Framework for Visual Literacy in Higher Education hujjatida esa vizual savodxonlikning zamonaviy axborot muhitidagi örni yanada kengroq yoritilgan. Unda tasvirlar, grafiklar, xaritalar, belgilar, fotosuratlar va vizual elementlarga ega multimodal matnlar axborot uzatişning turli şakllari sifatida körsatiladi. Hujjatda vizual axborotni tanqidiy idrok etiş, uning yaratiliş konteksti va işonçliligini baholaş, undan axloqiy hamda mas'uliyatli foydalaniş masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Gunther Kress va Theo van Leeuwenning Reading Images: The Grammar of Visual Design asari vizual kommunikatsiyani semiotik nuqtayi nazardan örganişda muhim nazariy manbalardan biridir. Mualliflar tasvirlarning ma'no yaratiş imkoniyatlarini rang, kompozitsiya, perspektiva, ramziy belgilar va boşqa vizual elementlar orqali izohlaydilar. Ularning yondaşuvida til va tasvir bir-biridan farqli semiotik vositalar bölsa-da, ular kommunikativ jarayonda özaro aloqadorlikda namoyon böladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Vizual savodxonlikning ta'lim bilan boğliq jihatlarini örganişda The New London Group tomonidan ilgari surilgan multiliteracies (köp savodxonlik) konsepsiyasi

ham nazariy ahamiyatga ega. Tadqiqotçilar an'anaviy savodxonlikni faqat öqiş va yoziş bilan çegaralab qöymasdan, zamonaviy kommunikatsiya kanallari, madaniy va lingvistik xilma-xillikni hisobga olgan holda kengroq yondaşuvni taklif etadilar. Ular ma'no yaratişda lingvistik, vizual, audio va makon modalliklarini ajratib körsatadilar. Uşbu qaraş ta'lim jarayonida turli axborot şakllari va kommunikativ vositalarni uyğun qöllaş zaruratini asoslaydi [4].

Susan Britsçning Image as Language: Teacher-Created Photographs and Visual Literacy for English Language Learning maqolasida fotosuratlardan til örgatiş jarayonida foydalaniş masalasi tahlil qilingan. Muallif tasvirlar bilan işlaşni tilni örganişdan ajratib bölmasligini, fotosuratlar asosida tuzilgan savollar va topşiriqlar mazmunni anglaş bilan bir qatorda til vositalaridan foydalaniş imkoniyatini ham kengaytirişini ta'kidlaydi [5].

Mazkur ilmiy qaraşlar vizual savodxonlikni faqat san'at yoki tasviriy faoliyat doirasida emas, balki til ta'limi bilan uzviy boğliq hodisa sifatida örganiş imkonini beradi [3].

Vizual savodxonlik tuşunçasini ona tili ta'limi nuqtayi nazaridan örganişda, eng avvalo, uning mazmunini aniqlaştiriş zarur. Çunki vizual savodxonlikni faqat rasmni köriş, tasvirlangan predmetni nomlaş yoki undagi voqeani qayta hikoya qiliş bilan tenglaştiriş mazkur hodisaning imkoniyatlarini çeklaydi. Vizual savodxonlik – bu şaxsning vizual axborotni idrok etiş, uning mazmuni va tarkibiy qismlarini tahlil qiliş, kontekstual ma'nosini anglaş, işonçliligini baholaş hamda öz fikrini vizual va verbal vositalar orqali ifodalaşga yönaltirilgan kognitiv-kommunikativ qobiliyatlar majmuidir. [7]. Uşbu ta'rifda vizual savodxonlikning bir-biri bilan uzviy boğlangan bir neça jihati namoyon böladi:

Birinçidan, idrok etiş – tasvirda aks etgan obyekt, hodisa, holat, rang, belgi va boşqa elementlarni anglaş jarayoni.

Ikkinçidan, tahlil qiliş – tasvir tarkibidagi elementlar örtasidagi munosabatlarni aniqlaş, sabab-oqibat aloqalarini belgilaş va mazmunni izohlaş.

Uçinçidan, baholaş – vizual axborotning maqsadi, işonçliligi, muallif pozitsiyasi va auditoriyaga ta'sirini aniqlaş.

Törtinçidan, verbal ifodalaş – tasvir mazmunini oğzaki yoki yozma nutq orqali bayon qiliş, unga munosabat bildiriş, izoh beriş va mustaqil matn yaratiş.

Beşinçidan, yaratiş – özlaştirilgan axborot asosida yangi mazmuniy boğlanişlarni şakllantiriş, tasvir yoki matn körinişidagi kommunikativ mahsulot yaratiş.

Mazkur jihatlar vizual savodxonlikning faqat köriş bilan boğliq jarayon emas, balki tafakkur, til va kommunikatsiya bilan uzviy aloqador murakkab faoliyat ekanini körsatadi.

Vizual savodxonlikni boşqa savodxonlik turlaridan farqlaş ham muhimdir. Xususan, media savodxonlik ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan ma'lumotlarni anglaş va tanqidiy baholaşga yönaltirilgan bölsa, axborot savodxonligi zarur axborotni izlaş, aniqlaş, baholaş va undan foydalaniş könikmalarini qamrab oladi. Vizual savodxonlik esa, asosan, tasviriy va vizual axborot bilan işlaşga qaratiladi. Biroq mazkur savodxonlik turlari bir-birini inkor etmaydi, aksinça, zamonaviy kommunikativ

muhitda özaro töldiruvçi xususiyatga ega [1]. Şuningdek, vizual savodxonlik va multimodal savodxonlik tuşunçalarini aynan bir hodisa sifatida talqin qiliş töğri emas. Multimodal savodxonlik til, tasvir, tovuş, harakat, makon va boşqa ma'no yaratiş vositalarining uyğunligini anglaş va ulardan foydalanişni qamrab oladi. Vizual savodxonlik esa uşbu jarayondagi vizual komponentni anglaş, tahlil qiliş va yaratişga alohida e'tibor qaratadi. Demak, vizual savodxonlik multimodal savodxonlikning muhim tarkibiy yönalişlaridan biri sifatida qaralişi mumkin [4]. Ona tili ta'limida mazkur tuşunçaning ahamiyati, avvalo, til va tasvir örtasidagi mazmuniy munosabatda namoyon böladi. Til inson fikrini ifodalaşning asosiy vositasi bölsa, tasvir ma'lum bir axborot, holat yoki ğoyani noverbal şaklda yetkazadi. Öquvçi tasvirni tahlil qiliş jarayonida undagi mazmunni til vositalari orqali ifodalaşga ehtiyoj sezadi. Natijada kuzatiş, taqqoslaş, izohlaş, tavsiflaş, dalillaş va xulosa çiqariş kabi aqliy hamda nutqiy amallar faollaşadi [3]. Masalan, fotosurat asosida matn yaratiş topşiriğida öquvçi dastlab tasvir mazmunini anglaydi. Keyin undagi asosiy obyekt va hodisalarni ajratadi, ular örtasidagi munosabatlarni aniqlaydi. Şundan söng voqeani tavsiflaş yoki izohlaş uçun zarur leksik va grammatik vositalarni tanlaydi. Yakunda mazmunan izçil matn yaratadi. Uşbu jarayonda vizual idrok, mantiqiy tafakkur va nutqiy faoliyat özaro uyğunlaşadi. Şu jihatdan ona tili darslarida vizual savodxonlikni rivojlantiriş quyidagi didaktik imkoniyatlarni yuzaga çiqaradi:

Leksik kompetensiyani rivojlantiriş. Tasvir asosida predmet, belgi, harakat va holatlarni nomlaş, frazeologik iboralarni oson özlaştiriş, sinonim va antonimlarni aniqlaş, sözlarning kontekstual ma'nosini tuşuniş imkoniyati yaratiladi.

Grammatik kompetensiyani rivojlantiriş. Tasvir mazmuniga muvofiq gaplar tuziş, fe'l zamonlari, sifatlar, ravişlar va boşqa grammatik birliklardan örinli foydalaniş maşq qilinadi.

Matn yaratiş könikmasini şakllantiriş. Vizual axborot asosida tavsifiy, hikoyaviy, muhokamaviy va publitsistik matnlar tuziş mumkin.

Tanqidiy fikrlaşni rivojlantiriş. Tasvirda berilgan axborotning maqsadi, işonçliligi, muallif pozitsiyasi va ehtimoliy yaşirin ma'nolarini tahlil qiliş imkoniyati paydo böladi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiriş. Öquvçilar tasvir yuzasidan özaro fikr almaşiş, savol beriş, dalillaş va munosabat bildirişga örganadilar [4].

Vizual materiallarning didaktik imkoniyatlari ularning turiga ham boğliq. Masalan, fotosuratlar muayyan hayotiy vaziyatni tasvirlaş va unga munosabat bildiriş uçun qulay bölsa, infografikalar sonli va mantiqiy ma'lumotlarni anglaş hamda ularni izohlaşga yordam beradi. Diagramma va jadvallar axborotlarni qiyoslaş, xaritalar esa makon va joylaşuvga oid munosabatlarni ifodalaş imkonini beradi. Ramziy tasvirlar va piktogrammalar esa mavhum tuşunçalarni anglaş hamda ularni verbal şaklda izohlaşga xizmat qilişi mumkin. Biroq vizual materialning mavjudligi öz-özidan vizual savodxonlik şakllanganini anglatmaydi. Agar öquvçi faqat rasmga qarab predmetlarni nomlasa yoki undagi voqeani oddiy takrorlasa, uning tahliliy va baholaş faoliyati yetarliça namoyon bölmasligi mumkin. Şu sababli vizual topşiriqlar öquvçini kuzatişdan tahlilga, tahlildan mustaqil fikrlaş va nutqiy mahsulot yaratişga olib boradigan izçil

bosqiçlarda taşkil etilişi lozim. Masalan, bitta fotosurat asosida quyidagi topşiriqlar ketma-ketligini taşkil etiş mumkin:

1. Idrok etiş: Fotosuratda qanday obyektlar va hodisalar tasvirlangan? Asosiy voqea nimadan iborat?

2. Tahlil qiliş: Tasvirda aks etgan holatning sababi nima bölişi mumkin? Qaysi detallar sizning fikringizni asoslaydi?

3. Baholaş: Fotosurat qanday ğoyani ilgari surmoqda? Tasvir orqali berilgan axborotga töliq işoniş mumkinmi?

4. Verbal ifodalaş: Fotosuratga sarlavha qöying va uning mazmunini 8–10 ta gap orqali yoritib bering.

5. Yaratiş: Tasvir asosida kiçik publitsistik maqola yoki muammoli vaziyatga bağişlangan munosabat matnini tayyorlang.

Uşbu topşiriqlar ketma-ketligi vizual axborotni oddiy idrok etişdan boşlab, uni mustaqil nutqiy faoliyatga aylantirişgaça bölgan jarayonni taşkil etadi. Bunda tasvir topşiriqning yakuniy maqsadi emas, balki fikrlaş va nutq yaratişni faollaştiruvçi didaktik vosita sifatida namoyon böladi.

Vizual savodxonlikni rivojlantirişda yana bir muhim masala – tasvirning kontekstual va madaniy xususiyatlarini hisobga olişdir. Har qanday tasvir muayyan ijtimoiy, tarixiy va madaniy muhitda yaratiladi. Undagi ramzlar, ranglar, obrazlar va ifoda vositalari turli auditoriyalar tomonidan turliça talqin qilinişi mumkin. Şu bois ona tili darslarida öquvçilarga faqat tasvir mazmunini aniqlaş emas, balki uning qanday şaroitda yaratilgani, qanday maqsadga xizmat qilişi va qanday auditoriyaga möljallanganini ham tahlil qiliş imkonini beriş lozim [3].

Tahlil va natijalar

Ötkazilgan nazariy tahlil va ilmiy manbalarni qiyosiy örganiş natijasida vizual savodxonlikning ona tili ta’limidagi örniga doir quyidagi ilmiy xulosalar şakllantirildi:

Birinçidan, vizual savodxonlikni faqat tasvirni taniş yoki undagi ma’lumotni qayta bayon qiliş bilan çeklaş mumkin emas. U vizual axborotni idrok etiş, tahlil qiliş, talqin etiş, baholaş va yangi kommunikativ mazmun yaratişni qamrab oluvçi yaxlit jarayondir [7].

Ikkinçidan, vizual savodxonlik ona tili ta’limida kognitiv va nutqiy faoliyatni özaro boğlovçi vosita sifatida qaralişi mumkin. Tasvir bilan işlaş jarayonida öquvçi fikrlaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi, xulosa çiqaradi va öz fikrini til birliklari yordamida ifodalaydi [3].

Uçinçidan, vizual savodxonlikning ona tili ta’limidagi didaktik imkoniyatlari uning quyidagi funksiyalarida namoyon böladi:

Kognitiv funksiya – vizual axborotni anglaş, tahlil qiliş va xulosa çiqarişni faollaştiriş.

Kommunikativ funksiya – tasvir mazmuni yuzasidan fikr almaşiş va munosabat bildiriş.

Nutqiy funksiya – oğzaki va yozma matn yaratiş, söz boyligini faollaştiriş.

Tanqidiy-baholaş funksiyasi – vizual axborotning işonçliligi va maqsadini aniqlaş.

Ijodiy funksiya – mavjud vizual axborot asosida yangi ğoya va kommunikativ mahsulot yaratiş.

Törtinçidan, vizual savodxonlikni rivojlantiriş uçun topşiriqlar oddiy idrok etişdan murakkab fikrlaş va ijodiy nutqiy faoliyatga qarab bosqiçma-bosqiç taşkil etilişi lozim. Bunda tasvirning mazmuni, öquvçining yoş xususiyati, til materiali va topşiriqning kommunikativ maqsadi özaro muvofiq bölişi zarur.

Beşinçidan, vizual materiallardan foydalanişda ularning şunçaki körgazmalilik xususiyatiga emas, balki öquvçini mustaqil fikrlaşga undaş, nutqiy faoliyatga jalb etiş va axborotni tanqidiy baholaşga yönaltiriş imkoniyatlariga ustuvor ahamiyat beriş kerak.

Xulosa

Vizual savodxonlik zamonaviy ta’lim şaroitida öquvçining axborotni anglaş, tahlil qiliş, baholaş va undan kommunikativ maqsadlarda foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiruvçi muhim kompetensiyalardan biridir. Uning mazmuni faqat tasvirni köriş va taniş bilan çegaralanmay, vizual axborotning ma’nosini anglaş, kontekstini aniqlaş, tanqidiy baholaş va yangi mazmun yaratiş jarayonlarini ham qamrab oladi.

Ona tili ta’limida vizual savodxonlikning ahamiyati, eng avvalo, tasvir va til örtasidagi uzviy aloqada namoyon böladi. Öquvçi vizual material bilan işlaş jarayonida öz kuzatişlarini sözlar orqali ifodalaydi, fikrlarini mantiqiy izçillikda bayon qiladi, turli kommunikativ vaziyatlarga mos matn yaratadi. Bu esa kognitiv faoliyat va nutqiy kompetensiyalarni özaro uyğunlikda rivojlantiriş uçun didaktik imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, vizual savodxonlikni ona tili ta’limiga integratsiyalaş öquvçilarning nafaqat vizual axborotni anglaş, balki mustaqil fikrlaş, mazmunli muloqot qiliş va öz fikrini oğzaki hamda yozma şaklda ifodalaş imkoniyatlarini kengaytirişga xizmat qiladi. Şu bois uni ona tili ta’limini takomillaştirişning muhim ilmiy-metodik yönalişlaridan biri sifatida örganiş dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Association of College and Research Libraries. ACRL Visual Literacy Competency Standards for Higher Education. Chicago: ACRL, 2011.

2. Association of College and Research Libraries. The Framework for Visual Literacy in Higher Education. 2022.

3. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. London: Routledge, 2006

4. The New London Group. A Pedagogy of Multiliteracies: Designing Social Futures. Harvard Educational Review, 1996.

5. Britsch S. Image as Language: Teacher-Created Photographs and Visual Literacy for English Language Learning. Australasian Journal of Early Childhood, 2012.

6. Debes J. L. The Loom of Visual Literacy: An Overview. Audiovisual Instruction, 1969.